



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY STATISTIKA QO'MITASI

2025- yil “22” sentabr

BUYRUQ 87 -son

Toshkent sh.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentabrdagi “O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish to'g'risida” PF-173-son Farmonining Milliy statistika qo'mitasi tizimida ijrosini ta'minlash, hududlarda aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishni samarali tashkil etish maqsadida **BUYURAMAN:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentabrdagi “O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish to'g'risida” PF-173-son Farmoni (keyingi o'rinlarda - Farmon deb ataladi) bilan O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishni o'tkazish (keyingi o'rinlarda-ro'yxatga olish tadbiri) **2026-yil 15-yanvardan 28-fevralga qadar** etib belgilanganligi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentabrdagi “O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish to'g'risida” PF-173-son Farmoni ijrosini ta'minlash bo'yicha nazorat reja 1-ilovaga muvofiq;

hududiy statistika boshqarmalariga ro'yxatga olish tadbirini tashkil etish uchun fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomalar asosida qabul qilinadigan xodimlar taqsimoti 2-ilovaga muvofiq;

ro'yxatga olish tadbirini metodologik hujjatlar bilan ta'minlash bo'yicha Ishchi guruhi tarkibi va uning vazifalari 3a, 3b-ilovalarga muvofiq;

ro'yxatga olish tadbiri jarayonlarida hududlar bilan ishlash bo'yicha Ishchi guruhi tarkibi va uning vazifalari 4a, 4b-ilovalarga muvofiq;

ro'yxatga olish tadbiri jarayonlarida vazirlik va idoralar bilan ishlash bo'yicha Ishchi guruhi tarkibi va uning vazifalari 5a, 5b-ilovalarga muvofiq;

ro'yxatga olish tadbirini o'tkazishda targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish bo'yicha Ishchi guruhi tarkibi va uning vazifalari 6a, 6b-ilovalarga muvofiq;

ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va dasturiy ta'minotni joriy qilish bo'yicha Ishchi guruhi tarkibi va uning vazifalari 7a, 7b-ilovalarga muvofiq;

ro'yxatga olish tadbiri jarayonlariga jalb etiladigan shaxslarni o'qitish ishlarini tashkil etish bo'yicha Ishchi guruhi tarkibi va uning vazifalari 8a, 8b-ilovalarga muvofiq;

ro'yxatga olish tadbirini moliyalashtirish va xarid ishlarini amalga oshirish bo'yicha Ishchi guruhi tarkibi va uning vazifalari 9a, 9b-ilovalarga muvofiq;

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshqarmalari boshliqlarining vazifalari 10-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Rais o'rinbosarlari (R. Maxammadiyev, Z. Ziyayev), Moliya-iqtisodiyot boshqarmasi (J. Shirinov), Ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish

va o'tkazish boshqarmasi (N. Sheraliyev), Inson resurslarini boshqarish bo'limi (Z. Talipova) va Yuridik bo'lim (V. To'xtayev) **2025-yil 1-oktabrga qadar:**

a) Farmonda Milliy statistika qo'mitasi markaziy apparati umumiy shtat birliklarini 14 taga oshirilishini inobatga olib:

Milliy statistika qo'mitasi markaziy apparati tuzilmasining hamda shtatlar jadvalini yangilangan loyihasini ishlab chiqsin va tasdiqlash uchun kiritsin;

Ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o'tkazish boshqarmasiga malakali xodimlarni ishga qabul qilish choralarini ko'rsin;

shtat birliklarining o'zgargan qismi bo'yicha bo'linma nizomi va lavozim yo'riqnomalari loyihalarini tayyorlasin va tasdiqlash uchun kiritsin.

b) Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshqarmalari boshliqlari Farmonga asosan 2025-yil 1-oktabrdan 2026-yil 1-mayga qadar hududiy statistika boshqarmalarining har birida fuqarolik-huquqiy tisdagi shartnoma asosida 5 nafardan mutaxassis jalb etilishini inobatga olib, Ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o'tkazish bo'limiga mazkur buyruqning 2-ilovasiga muvofiq fuqarolik-huquqiy tisdagi shartnomalar asosida mutaxassislarni ishga qabul qilish choralarini ko'rsinlar.

4. Statistika ma'lumotlarini muvofiqlashtirish va tarqatish boshqarmasi (A. Ikramov) **10 kun muddatda:**

har bir mahallada "mahalla yettiligi" tizimida ishlovchi xodimlar ro'yxati va ularning planshetlarini to'liq xatlovdan o'tkazilishini;

hududiy komissiyalarni tashkil etilishini;

aholining ayrim toifalari joylashgan tashkilot va muassasalar ro'yxatini shakllantirishni ta'minlasin.

5. Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va statistik registrlarni yuritish boshqarmasi (Sh. Odilov):

2025-yil 15-oktabrga qadar qo'mitada mavjud "Aholini ro'yxatga olish axborot tizimi" negizida qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish savolnomalarini qo'shgan holda ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishlash va chiquvchi jadvallarni shakllantirishni hamda mazkur tizimni takomillashtirish, sinovdan o'tkazish va uning uzluksiz ishlashini ta'minlasin;

2025-yilning 10-20-noyabr kunlarida Ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o'tkazish boshqarmasi (N. Sheraliyev) bilan hamkorlikda har bir hududdan 2 tadan mahallalarni tanlagan holda ro'yxatga olishning axborot tizimini planshet qurilmalari orqali aholidan so'rovnoma o'tkazgan holda ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va chiquvchi jadvallarni shakllantirish bo'yicha to'liq sinovdan o'tkazilishini ta'minlasin.

6. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshqarmalari boshliqlari **2025-yil 1-oktabrga qadar:**

Farmon ijrosi yuzasidan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining qarori, chora-tadbirlari, media-rejasi loyihalarini tayyorlashda ishtirok etishni;

mahallalar kesimida tashkiliy rejalarni tuzish reja-jadvalini ishlab chiqilishini hamda mahallalar kesimida borish qiyin bo'lgan olis hududlar ro'yxatini shakllantirilishini;

mahalla kesimida ko'chalar bo'yicha xonadonlar va aholi soni to'g'risidagi ma'lumotlarni O'zbekiston mahallalari uyushmasining hududiy boshqarmalaridan olinishini;

“mahalla yettiligi” xodimlarini o'qitish uchun trenerlar ro'yxatini tuzishni ta'minlasinlar.

7. Ro'yxatga olish tadbiriga puxta tayyorgarlik ko'rish va uni xalqaro tavsiyalar asosida o'tkazish maqsadida, mazkur buyruq bilan tasdiqlangan Ishchi guruhlar rahbarlari hamda Hududiy statistika boshqarmalari boshliqlari o'zlariga yuklatilgan vazifalarni belgilangan muddatlarda bajarilishi yuzasidan shaxsan javobgar etib belgilansin.

8. Rais o'rinbosarlari (R. Maxammadiyev, Z. Ziyayev) ishchi guruhlariga yuklatilgan vazifalarni hamda Statistika ma'lumotlarini muvofiqlashtirish va tarqatish boshqarmasi (A. Ikramov) hududiy statistika boshqarmalari boshliqlariga yuklatilgan vazifalarni belgilangan muddatlarda amalga oshirishlari bo'yicha nazorat o'rnatsinlar.

9. Mazkur buyruq bilan tasdiqlangan ishchi guruhlar rahbarlari **bir oy muddatda** o'zlariga yuklatilgan vazifalarni kalendar rejasini ishlab chiqib, Milliy statistika qo'mitasi raisiga tasdiqlash uchun kiritilishini ta'minlasinlar.

10. Xalqaro hamkorlik boshqarmasi (U. Noipov) ro'yxatga olish tadbirini xalqaro tavsiyalar asosida o'tkazilishini ta'minlash maqsadida YUNFPA, FAO, MDH statistika qo'mitasi va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan doimiy muloqot va hamkorlikni ta'minlasin.

11. Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi (D. Zakirov) va Yuridik bo'lim (V. To'xtayev) **bir hafta muddatda** hududlar bilan ishlash bo'yicha Ishchi guruhi tarkibi hamda Hududiy statistika boshqarmalari rahbar xodimlari uchun Farmon mazmun mohiyatini yoritish bo'yicha seminar tashkil etsinlar.

12. Rais o'rinbosarlari (R. Maxammadiyev, Z. Ziyayev) Farmon, mazkur buyruq va uning ilovasidagi nazorat rejasida belgilangan vazifalarning ijrosini o'z vaqtida mas'ullar ishtirokida bajarilishi bo'yicha tizimli ravishda muhokamalarni tashkil etib borsinlar.

13. Ijro kotibiyati (F. Berdibayev):

Mazkur buyruqni Milliy statistika qo'mitasi markaziy apparati bo'linmalariga tanishtirishni hamda quyi tizim organlariga yetkazilishini tashkil etsin;

Farmon va nazorat rejasida belgilangan barcha topshiriqlar ijrosi bajarilishini qat'iy nazoratga olsin va haftalik axborot kiritilishini ta'minlasin.

14. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

Rais



B. Hamrayev

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentyabrdagi
"O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish to'g'risida"
PF-173-son Farmoni ijrosini ta'minlash yuzasidan
NAZORAT REJA

T/r	Farmon bandlari	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
1.	5. O'zbekiston Respublikasida 2026-yilda aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazishni tashkil etish bo'yicha hududiy komissiyalarning (keyingi o'rinlarda – hududiy komissiyalar) namunaviy tarkibi 1a- va 1b-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.	1. Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining hududiy komissiyalarning namunaviy tarkibiga asosan tarkibini tasdiqlatish choralari ko'rish. 2. Hududiy komissiyalar faoliyatini tashkil etish maqsadida chora-tadbirlar, media-reja loyihalarini tayyorlashda ishtirok etish. 3. Xodimlarni o'qitish uchun zarur bino va jihozlangan xonalarni tayyorlanishini tashkil etish. 4. Tuman va shaharlarni ro'yxatga olish va hisob uchastkalariga bo'lgan holda tashkiliy rejalarini ishlab chiqish va tasdiqlashni tashkil etish.	2025-yil 1-oktabr 2025-yil 1-oktabr 2025-yil 15-oktabr	Hududiy statistika boshqarma boshliqlari
2.	6. Belgilansinki: (a) ro'yxatga olish tadbiri "mahalla yettiligi" tizimida ishlovchi xodimlarni 2025-yil 15-dekabrda 2026-yil 1-martgacha bo'lgan davrda jalb etish orqali o'tkaziladi. Bunda O'zbekiston mahallalari uyushmasi Milliy statistika qo'mitasi hamda mas'ul vazirlik va idoralar bilan birgalikda "mahalla yettiligi" tizimida ishlovchi xodimlar planshet qurilmalaridan foydalangan holda ro'yxatga olish tadbiri o'tkazilishini ta'minlaydi; (b) ro'yxatga olish tadbirida ro'yxatga oluvchi sifatida ishtirok etadigan "mahalla yettiligi" tizimida ishlovchi xodimlar va boshqa jalb etiladigan xodimlar Jahon banki ishtirokida amalga oshirilayotgan "O'zbekistonda statistika tizimi salohiyatini mustahkamlash" loyihasi doirasida mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining bir yarim	1. Mahalla uyushmasi bilan hamkorlikda "mahalla yettiligi" tizimida ishlovchi xodimlarni 2025-yil 15-dekabrda 2026-yil 1-martgacha bo'lgan davrda jalb etish choralari ko'rish. 2. Ro'yxatga olish tadbirida ro'yxatga oluvchi bo'lib ishtirok etadigan "Mahalla yettiligi" tizimi xodimlari va patronaj hamshiralarning sonini hududiy komissiyalardan olish. 3. Ro'yxatga olish tadbirida ro'yxatga oluvchi bo'lib ishtirok etadigan "Mahalla yettiligi" tizimi xodimlari va patronaj hamshiralarni rag'batlantirish maqsadida loyiha smeta hisob kitoblari va boshqa zarur hujjatlarini ishlab chiqish.	2025-yil 1-dekabr 2025-yil 1-oktabr 2025-yil 20-oktabr	Vazirlik va idoralar bilan ishlash bo'yicha ishchi guruh (A.Ikramov) Moliyalashtirish va xarid ishlarini amalga oshirish bo'yicha Ishchi guruhi (J.Shirinov)

T/r	Farmon bamlari	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	baravari miqdorida (solliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni inobatga olgan holda) bir martalik rag'batlantiriladi. Rag'batlantirish to'lovlari tegishli vazirlik, idora va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining so'rovnomasiga asosan Milliy statistika qo'mitasi tomonidan moliyalashtiriladi; (v) ro'yxatga olish tadbiriga jalb etiladigan xodimlar uchun ularning asosiy ish joyi, lavozimi va o'rtacha oylik ish haqi saqlanadi.	4. Mazkur rag'batlantirish mablag'larini tegishli vazirlik, idora va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining so'rovnomasiga asosan belgilangan tartibda ushbu vazirlik, idora va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga o'tkazib berilishini ta'minlash. 5. Rag'batlantirish to'lovlarni tegishli vazirlik, idora va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan ro'yxatga oluvchi bo'lib ishtirok etgan "Mahalla yettiligi" tizimi xodimlari va patronaj hamshiralarga o'z vaqtida to'lab berilishini nazorat qilish.	2026-yil 5-mart 2026-yil 10-mart	
3.	7. Quyidagi tashkilotlar 2025-yil 10-oktabrga qadar Milliy statistika qo'mitasiga: (a) O'zbekiston mahallalari uyushmasi har bir mahalla kesimida ko'chalar bo'yicha xonadonlar va aholi soni to'g'risidagi elektron ma'lumotlarni; (b) Kadastr agentligi qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanayotgan tashkilotlar ro'yxatini elektron shaklda taqdim etsin.	1. O'zbekiston mahallalari uyushmasidan har bir mahalla kesimida ko'chalar bo'yicha xonadonlar va aholi soni to'g'risidagi elektron ma'lumotlarni hamda Kadastr agentligidan qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanayotgan tashkilotlar ro'yxatini elektron shaklda olish. Bunda har bir mahallalar kesimida ma'lumotlarni, shu jumladan mahallalar chegarasi ko'rsatilgan xaritalar va kartografik ma'lumotlar olinishini tashkil etish.	2025-yil 10-oktyabrga qadar	N.Sheraliyev, Sh.Daliyev
4.	8. Ro'yxatga olish tadbiri doirasida quyidagilar: (a) davlat organlari va tashkilotlari 2026-yil 15-yanvardan 31-yanvarga qadar o'z tizimida faoliyat yuritayotgan barcha xodimlarning census.stat.uz portalida ro'yxatdan o'tishini; (b) Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi respublikadagi barcha o'rta maxsus va kasbiy ta'lim tashkilotlari, shuningdek, davlat, nodavlat va xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari va ularning filiallarida tahsil olayotgan talabalarning census.stat.uz portalida ro'yxatdan o'tishini; (v) Qishloq xo'jaligi vazirligi O'zbekiston fermerlari kengashi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hamda tuman	1. Hududlar kesimida davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat muassasalari, davlat unitar korxonalari, aksiyadorlik jamiyatlari hamda ularning tizim korxona va tashkilotlari idora va tashkilotlarda faoliyat olib borayotgan xodimlar ro'yxatini shakllantirish. 2. Vazirlik, idora va tashkilotlarni Internet tarmog'i orqali ro'yxatdan o'tishlari uchun videorolik va boshqa tushuntirish materiallari bilan ta'minlash. 3. Shakllantirilgan ro'yxat bo'yicha hududlar kesimida vazirlik, idora va tashkilotlarda faoliyat olib borayotgan xodimlarni census.stat.uz portali orqali ro'yxatdan o'tishlarini nazorat qilish. 4. Fermer xo'jaliklari, yuridik shaxs tashkil etgan dehqon xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar ro'yxatini shakllantirish va Qishloq xo'jaligi vazirligiga taqdim etish.	2025-yil 1-dekabr 2025-yil 15-dekabr 2026-yil 15-31-yanvar 2025-yil 1-noyabr	Vazirlik va idoralar bilan ishlash bo'yicha ishchi guruh (A.Ikramov) Targ'ibot bo'yicha Ishchi guruhi (U.Abdurasulov) Vazirlik va idoralar bilan ishlash bo'yicha ishchi guruh (A.Ikramov) Sh.Daliyev,

T/r	Farmon bandlari	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	(shahar)lar hokimliklari bilan birgalikda fermer xo'jaliklari, yuridik shaxs tashkil etgan dehqon xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar va asosiy faoliyati qishloq xo'jaligi bo'lmagan qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanayotgan korxona va tashkilotlarning Internet tarmog'i orqali ro'yxatdan o'tishini; (g) Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Mudofaa vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiya, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Tashqi ishlar vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi va Din ishlari bo'yicha qo'mita 2025-yil 1-noyabrdan boshlab aholining ayrim toifalarini ro'yxatga olish ishlari 2-ilovaga muvofiq tashkil etilishini ta'minlasin.	5. Kadastr agentligi bilan hamkorlikda asosiy faoliyati qishloq xo'jaligi bo'lmagan qishloq xo'jaligi yerlariga ega korxona va tashkilotlar katalogini shakllantirish va Qishloq xo'jaligi vazirligiga taqdim etish. 6. Yuqoridagi toifadagi subyektlarning Internet tarmog'i orqali ro'yxatdan o'tishlarini Qishloq xo'jaligi vazirligi bilan hamkorlikda nazoratga olish. 7. 2-ilovadagi mas'ul vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda aholining ayrim toifalari mavjud tashkilotlar ro'yxati va ulardagi xodimlar soni to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantirish. 8. Aholining ayrim toifalari mavjud tashkilotlardan qatnashadigan ro'yxatga oluvchi xodimlar ro'yxatini shakllantirish va ularni o'qitish. 9. Biriktirilgan mas'ul xodimlar tomonidan aholining ayrim toifalarini ro'yxatga olish ishlarini tashkil qilish.	2025-yil 15-noyabr 2026-yil 15-yanvar-28-fevral 2025-yil 15-oktabr 2025-yil 25-oktabr 2025-yil 1-noyabrdan boshlab	Sh.Odilov Sh.Daliyev, Sh.Odilov Sh.Daliyev, Sh.Odilov Vazirlik va idoralar bilan ishlash bo'yicha ishchi guruh (A.Ikramov) O'qitish bo'yicha Ishchi guruhi (Z. Yuldoshev) Vazirlik va idoralar bilan ishlash bo'yicha ishchi guruh (A.Ikramov)
5.	9. Vazirlik, idora va tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan shaxsga va qishloq xo'jaligi faoliyatiga doir ma'lumotlar ro'yxati 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Bunda tegishli ma'lumotlar 2026-yil 15-fevralga qadar "Elektron hukumat" tizimining idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali Milliy statistika qo'mitasiga taqdim etiladi.	1. Farmonning 3-ilovasi bilan tasdiqlangan vazirlik va idoralar tomonidan taqdim etiladigan shaxsga va qishloq xo'jaligi faoliyatiga doir ma'lumotlar ro'yxatidan aniq olinadigan ma'lumotlarning batafsil ro'yxatini kelishib olish. 2. Shakllantirilgan ro'yxat bo'yicha "Elektron hukumat" tizimining idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali ma'lumotlarni olish.	2025-yil 1-noyabr 2025-yil 15-fevral	Sh.Odilov, B.Imamov, N.Sheraliyev, Sh.Daliyev

T/r	Farmon bandlari	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
6.	10. Ro'yxatga olish tadbiri doirasida vazirlik, idora va tijorat banklari rahbarlari va ularning o'rinbosarlari hudud, tuman va shaharlarga 4-ilovaga muvofiq biriktirilsin, ular zimmasiga tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda quyidagi vazifalar yuklatilsin: (a) tuman (shahar)larda ro'yxatga olish shtablarini tashkil etish va ularning faoliyatini nazorat qilish; (b) har bir mahallada "mahalla yettiligi" tizimida ishlovchi xodimlar tomonidan ro'yxatga olish tadbiriga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish ishlarini tashkil etish; (v) tuman (shahar)larni ro'yxatga olish va hisob uchastkalariga bo'lish bo'yicha ishlab chiqilgan tashkiliy reja asosida ro'yxatga olish tadbirini tashkil etish va nazorat qilish; (g) ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish uchun zarur bo'ladigan binolar yoki xonalar ajratish, shuningdek, ularni tegishli moddiy-texnika bazasi va transport vositalari bilan ta'minlash;	1. Tuman (shahar)larda ro'yxatga olish shtablari tarkibini tuzilishi va tasdiqlanishini nazorat qilish. 2. Tuman (shahar)larda ro'yxatga olish shtab a'zolarining vazifalarini taqsimlash. 3. Ro'yxatga olishga jalb etiladigan "Mahalla yettiligi" tizimi xodimlari o'qitilishini tashkil qilish. 4. Internet jahon axborot tarmog'i orqali ro'yxatga olish jarayonlarini belgilangan muddatlarda sifatli o'tkazilishini tashkil etish. 5. Planshet qurilmalari orqali ro'yxatga olish ishlarini respondentlar yashaydigan (vaqtincha bo'lib turgan) turar joy va noturar joylarga, binolarga tashrif buyurgan holda uyma-uy yurib so'rov o'tkazish orqali sifatli o'tkazilishini tashkil etish. 6. Tuman (shahar)larda tuzilgan ro'yxatga olish va hisob uchastkalarini ro'yxatga olishning tashkiliy rejasi bilan solishtirish. 7. Ro'yxatga olish va hisob uchastkalari faoliyatini ro'yxatga olish davrida nazorat qilish. 8. Ro'yxatga olishga jalb etiladigan "Mahalla yettiligi" xodimlarini o'qitish uchun ajratilgan bino yoki xonalarda aloqa vositalari va boshqa zarur jihozlar mavjudligini xatlovdan o'tkazish. 9. Tuman (shahar) ro'yxatga olish shtablari tomonidan ro'yxatga olish va hisob uchastkalarini zaruratga ko'ra transport vositalari bilan ta'minlanishini nazorat qilish. 10. Aholining ayrim toifalari mavjud bo'lgan mahallalar ro'yxatini shakllantirilishini nazorat qilish.	2025 yil 1-oktyabr 2026-yil 1-15-dekabr 2026-yil 15-31-yanvar 2026-yil 4-fevral-28-fevral 2025-yil 1-noyabr 2025-yil 1-noyabr – 2026-yil 1-mart 2025-yil 10-noyabr Zaruratga ko'ra	Hududlar bilan ishlash bo'yicha Ishchi guruhi (A.Ikramov) O'qitish bo'yicha Ishchi guruhi (Z. Yuldoshev) Hududlar bilan ishlash bo'yicha Ishchi guruhi (A.Ikramov) Hududlar bilan ishlash bo'yicha Ishchi guruhi (A.Ikramov) Hududlar bilan ishlash bo'yicha Ishchi guruhi (A.Ikramov)

T/r	Farmon bndlari	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	(d) aholining ayrim toifalarini ro'yxatga olish ishlarini tegishli vazirlik, idora va tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirish.	11. Aholining ayrim toifalari mavjud maxsus muassasalar tomonidan belgilangan ro'yxatga oluvchi xodimlarni o'qitish jarayonlarida ularning ishtirokini ta'minlash. 12. Biriktirilgan xodim tomonidan muassasa va tashkilotlarda aholining ayrim toifalarini ro'yxatdan o'tkazishlarini nazorat qilish.	2025-yil 15-oktyabr 2026-yil 1-5-noyabr 2026-yil 15-yanvar-28-fevral	D.Tulyaganova, Hududlar bilan ishlash bo'yicha Ishchi guruhi (A.Ikramov)
7.	12. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hamda tuman (shahar)lar hokimliklari: (a) 2025-yil 10-oktabrga qadar hududiy komissiyalar tarkibini tasdiqlasin; (b) 2025-yil 20-oktabrga qadar hududiy komissiyalarning chora-tadbirlar rejasini tasdiqlasin; (v) 2025-yil 1-noyabrga qadar: (i) tuman (shahar)larda ro'yxatga olish shtabi faoliyatini tashkil etsin hamda ro'yxatga olish tadbirida ishtirok etadigan asosiy va zaxira xodimlar ro'yxatini shakllantirsin va tasdiqlasin; (ii) ro'yxatga olish tadbirini o'tkazishga jalb etiladigan xodimlarni o'qitish uchun mebellar va aloqa vositalari bilan jihozlangan vaqtincha bino yoki xonalarni ajratsin;	1. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzurida O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazishni tashkil etish bo'yicha hududiy komissiyalar tarkibi tasdiqlanishini ta'minlash. 2. Tuman (shahar) hokimliklari huzurida O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazishni tashkil etish bo'yicha tuman (shahar) komissiyalari tarkibini tasdiqlanishini ta'minlash. 3. Hududiy komissiyalarning chora-tadbirlar rejasi tasdiqlanishini ta'minlash. 4. Tuman (shahar) komissiyalarining chora-tadbirlar rejasini tasdiqlanishini ta'minlash. 5. Tuman (shahar)larda ro'yxatga olish shtab faoliyatini tashkil etilishini nazorat qilish. 6. Ro'yxatga olish tadbirida ishtirok etadigan "mahalla yettiligi" va zaxira xodimlar ro'yxatini shakllantirilishi va tasdiqlanishini nazorat qilish. 7. Ro'yxatga olish tadbirini o'tkazishga jalb etiladigan "mahalla yettiligi" va zaxira xodimlarni o'qitish uchun mebellar va aloqa vositalari bilan jihozlangan vaqtincha bino yoki xonalarni ajratilishini nazorat qilish.	2025-yil 10-oktyabr 2025-yil 20-oktyabr 2025-yil 1-noyabr	Hududlar bilan ishlash bo'yicha Ishchi guruhi (A.Ikramov) Hududlar bilan ishlash bo'yicha Ishchi guruhi (A.Ikramov) Hududlar bilan ishlash bo'yicha Ishchi guruhi (A.Ikramov)

T/r	Farmon bandlari	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	(g) 2025-yil 15-noyabrga qadar hudud, tuman (shahar)larni ro'yxatga olish va hisob uchastkalariga bo'lgan holda tashkiliy rejalarni tasdiqlasin; (d) ro'yxatga olish tadbirining aholi o'rtasida keng yoritilishini tashkil etsin; (j) ro'yxatga olish tadbirining o'z vaqtida va sifatli o'tkazilishini ta'minlasin hamda buning uchun amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha kunlik nazoratni o'rnat sin.	8. Tuman (shahar)larda ro'yxatga olishning tashkiliy rejasini ishlab chiqilishini nazorat qilish; 9. Ro'yxatga olishning tashkiliy rejasini hududiy komissiyalar tomonidan tasdiqlanishini nazorat qilish. 10. Hududlarda targ'ibot materiallarini tayyorlanishi va aholining keng ommasiga ro'yxatga olish tadbirining mazmun mohiyatini yoritilishi bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borilishini nazorat qilish. 11. Hududlarda bannerlar va keng o'lchamdagi ekranlar manzillar ro'yxatini tuzish hamda targ'ibot materiallarini joylashtirilishini va ijtimoiy soha obyektlariga yetkazilishini nazorat qilish. 12. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hamda tuman (shahar)lar hokimliklari tomonidan ro'yxatga olish ishlariga tayyorgarlik ko'rish holatini o'rganish bo'yicha kunlik nazorat o'rnatilganligini joylarga borgan holda o'rganish va kamchiliklar yuzasidan respublika shtabiga axborot kiritish. 13. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hamda tuman (shahar)lar hokimliklari tomonidan ro'yxatga olishni o'tkazish davrida ro'yxatga olish jarayonlarini o'rganish bo'yicha kunlik nazorat o'rnatilganligi bo'yicha tuman (shahar)ga borgan holda o'rganish va respublika shtabiga axborot kiritish.	2025-yil 10-noyabr 2025-yil 15-noyabr 2026-yil 1-mart 2025-yil oktyabr - 2026-yil fevral 2025-yil 15-oktyabr - 2026-yil 1-mart 2025-yil 15-oktabr - 2026-yil 1-mart	Hududlar bilan ishlash bo'yicha Ishchi guruhi (A.Ikramov) Targ'ibot-bo'yicha Ishchi guruhi (U.Abdurasulov) Hududlar bilan ishlash bo'yicha Ishchi guruhi (A.Ikramov) Hududlar bilan ishlash bo'yicha Ishchi guruhi (A.Ikramov)
8.	13. O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniya, Raqamli texnologiyalar vazirligi ro'yxatga olish tadbirining maqsad va vazifalari ommaviy axborot vositalari, Internet va ijtimoiy	1. Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish jarayonini yoritishga qaratilgan targ'ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirish bo'yicha media rejani ishlab chiqish va tasdiqlash uchun kiritish.	2025-yil 15-oktabr	Targ'ibot-bo'yicha Ishchi guruhi (U.Abdurasulov)

T/r	Farmon bndlari	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	tarmoqlarda quyidagilarni inobatga olgan holda keng yoritilishini ta'minlasin: (a) respublika va mahalliy ommaviy axborot vositalarida maxsus ko'rsatuv va eshittirishlar tashkil etish; (b) videoroliklar va ijtimoiy reklamalarni televideniya namoyish etish va ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish; (v) SMS-xabarnoma yuborishni tashkil etish.	2. Ro'yxatga olishning mazmun-mohiyatini ochib beruvchi hamda aholini faol ishtirok etishga da'vat etuvchi turli videoroliklar va ijtimoiy reklamalar uchun ssenariylar ishlab chiqish va tayyorlash. 3. Respublika va mahalliy OAVda maxsus ko'rsatuv va eshittirishlar tashkil etish. 4. Videoroliklar va ijtimoiy reklamalarni televideniya namoyish etish va ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish choralari ko'rish. 5. Aholiga SMS-xabarnoma yuborishni tashkil etish.	2025-yil 20-oktabr 2026-yil 1-mart 2026-yil 1-mart 2026-yil yanvar	
9.	14. Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda O'zbekiston Respublikasida 2026-yilda aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishni o'tkazish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar rejasini tasdiqlasin.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritishni ta'minlash.	2025-yil 19-oktabr	N.Sheraliyev, V.To'xtayev
10.	15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-dekabrda PQ-455-son qarori bilan tasdiqlangan Birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilarning 2025-2027-yillar uchun budjet mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq maqsadli indikatorlariga 5-ildan muvofiq o'zgartirish kiritilsin.	Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazishda 2025-2027-yillar uchun budjet mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq xarajatlarni nazarda tutish.	2025-2026- yillar 31-dekabr	J.Shirinov, O.Bobojonov
11.	16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim farmonlari 6-ildan muvofiq o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.	Ma'lumot va rahbarlik uchun.	2025-yil sentabr	V.To'xtayev, Sh.Daliyev, N.Sheraliyev

**Hududiy statistika boshqarmalariga ro'yxatga olish tadbirini
tashkil etish uchun fuqarolik-huquqiy tisdagi shartnomalar
asosida qabul qilinadigan xodimlar
TAQSIMOTI**

T/r	Hududlar	Nafar
	O'zbekiston Respublikasi	70
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	5
	<i>viloyatlar:</i>	
2.	Andijon	5
3.	Buxoro	5
4.	Jizzax	5
5.	Qashqadaryo	5
6.	Navoiy	5
7.	Namangan	5
8.	Samarqand	5
9.	Surxondaryo	5
10.	Sirdaryo	5
11.	Toshkent	5
12.	Farg'ona	5
13.	Xorazm	5
14.	Toshkent sh.	5

**Ro'yxatga olish tadbirini metodologik
hujjatlar bilan ta'minlash bo'yicha ishchi guruhi
TARKIBI**

- | | |
|--------------|---|
| N.Sheraliyev | – Ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o'tkazish boshqarmasi boshlig'i, <i>ishchi guruh rahbari</i> |
| D.Zakirov | – Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi boshlig'i, <i>ishchi guruh rahbari o'rinbosari</i> |
| Sh.Dusnayev | – Ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o'tkazish boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari, <i>ishchi guruh rahbari o'rinbosari</i> |
| F.Normatov | – Ro'yxatga olishni tashkil etish va ma'lumotlarni qayta ishlash bo'limi boshlig'i |
| Z.Xudayarova | – Ro'yxatga olish metodologiyasi va kartografik hujjatlar bilan ishlash bo'limi bosh mutaxassisi |
| N.Dehqonova | – Qishloq xo'jaligida tarkibiy o'zgarishlar bo'yicha yig'ma tahliliy ma'lumotlarni shakllantirish bo'limi bosh mutaxassisi |
| A.Eraliyeva | – Ro'yxatga olish natijalari bo'yicha yig'ma tahliliy axborotlarni shakllantirish bo'limi yetakchi mutaxassisi |
| M.Yuldasheva | – Navoiy viloyati statistika boshqarmasi Ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o'tkazish bo'limi boshlig'i |
| M.Umarov | – Raqamli resurslar va interaktiv xizmatlar bo'limi boshlig'i |
| U.Esanov | – Axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash bo'liimi boshlig'i |

**Ro'yxatga olish tadbirini metodologik hujjatlar bilan ta'minlash bo'yicha
ishchi guruhi
VAZIFALARI**

T/r	Vazifalar
1.	Aholi punktlarida yashovchi aholi soni ko'rsatilgan holda ko'chalar bo'yicha xonadon va uylar ro'yxatini shakllantirishni ta'minlash.
2.	Savolnoma shakllarini axborot tizimida to'ldirish jarayonida kelib chiqqan takliflar asosida takomillashtirish.
3.	Ro'yxatga olishni o'tkazishning tashkiliy rejasini tuzish bo'yicha yo'riqnoma loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun kiritish.
4.	Ro'yxatga olish ishlarida ishtirok etuvchi xodimlarni o'qitish tartibi loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun kiritish.
5.	Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori loyihasini tasdiqlanishini ta'minlash.
6.	Aholi va qishloq xo'jaligi savolnoma shakllari bo'yicha mantiqiy nazoratlarni xodimlar o'rtasida va mahallalarda sinov o'tkazish jarayonlarida takomillashtirib borish.
7.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi hududiy komissiyalarning tarkibi tasdiqlanganligi bo'yicha hisobotlarni yig'ish.
8.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi hududiy komissiyalarning chora-tadbirlar rejasini tasdiqlanganligi bo'yicha hisobotlarni yig'ish.
9.	Tumanlar va shaharlar hokimliklari huzuridagi tuman (shahar) komissiyalarining tarkibi tasdiqlanganligi bo'yicha hisobotlarni yig'ish.
10.	Tumanlar va shaharlar hokimliklari huzuridagi tuman (shahar) komissiyalarining chora-tadbirlar rejasini tasdiqlanganligi bo'yicha hisobotlarni yig'ish.
11.	Aholining ayrim toifalari mavjud muassasa va tashkilotlar ro'yxatini vazirliklar, idoralar va tashkilotlar hamda hududlar bo'yicha shakllantirish.
12.	Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar ro'yxatga olish shtablari faoliyatini tashkil etilganligi bo'yicha hisobotlarni yig'ish.
13.	Tuman (shahar) ro'yxatga olish shtablari faoliyatini tashkil etilganligi bo'yicha hisobotlarni yig'ish.
14.	Tuman (shahar)larning tashkiliy rejalarini tuzish, kelishish va tasdiqlash jarayonlarini ta'minlash.
15.	Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo'yicha yig'ma tashkiliy rejalarini hududiy komissiyalar bilan kelishish va tasdiqlanishini ta'minlash.
16.	Respublika bo'yicha yig'ma tashkiliy rejani respublika komissiyasi bilan kelishish va tasdiqlanishini ta'minlash.
17.	Shakllantirilgan vaqtinchalik jalb etiladigan xodimlar (zaxira xodimlarni hisobga olgan holda) ro'yxati bo'yicha hisobotlarni hududlar bilan ishlash ishchi guruhi a'zolaridan qabul qilish.
18.	Vaqtinchalik jalb qilinadigan xodimlar uchun mehnat muhofazasi bo'yicha yo'riqnoma loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash
19.	Ro'yxatga olishning aholiga tegishli savolnoma shakllarini to'ldirish bo'yicha yo'riqnoma loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun kiritish.
20.	Ro'yxatga olishning qishloq xo'jaligiga tegishli savolnoma shakllarini to'ldirish bo'yicha yo'riqnoma loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun kiritish.

T/r	Vazifalar
21.	Aholining ayrim toifalarini ro'yxatga olish tartibi to'g'risidagi Nizom loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun kiritish.
22.	Ro'yxatga olish hujjatlarini (shu jumladan vaqtincha saqlash va yo'q qilish) saqlash tartibi loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun kiritish.
23.	Vaqtinchalik jalb qilinadigan xodimlarning lavozim majburiyatlarini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun kiritish.
24.	Ro'yxatga olishning shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berish tartibi loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun kiritish.
25.	Jinoyatchilik ko'p uchraydigan hududlar va tarbiyasi og'ir oilalar manzillarini ichki ishlar organlaridan olinishi va ularni ro'yxatga olish uchastkalariga yetkazilishi bo'yicha hisobotlarni hududlar bilan ishlash bo'yicha ishchi guruhi a'zolaridan qabul qilish.
26.	Mahallalar kesimida aholining Internetdan ro'yxatdan o'tish holati bo'yicha tahliliy ma'lumotlarni hududlarga yuborish.
27.	Hisob uchastkalari kesimida ro'yxatga olingan aholi bo'yicha tahliliy ma'lumotlarni hududlarga yuborish.
28.	Mahallalar kesimida fermer xo'jaliklari, yuridik shaxs tashkil etgan dehqon xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi yerlariga ega tashkilotlarni Internetdan o'tish holati bo'yicha tahliliy ma'lumotlarni hududlarga yuborish.
29.	Tuman (shahar)lar bo'yicha maxsus muassasa va tashkilotlardan biriktirilgan mas'ul xodimlar tomonidan aholining ayrim toifalarini ro'yxatga olinish holati bo'yicha tahliliy ma'lumotlarni hududlarga yuborish.
30.	Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish ma'lumotlari va hujjatlarining saqlanishi va arxivga topshirilishi (shu jumladan vaqtincha saqlanishi) Tartibi loyihasini tayyorlash va tasdiqlash.
31.	Mahalla yettiligi xodimlari tomonidan ro'yxatga olish yakunidan so'ng yig'ilgan ma'lumotlarni sifatini baholash maqsadida uy-joy manzillariga takror borib tanlanma nazorat kuzatuvini tashkil etish bo'yicha Tartib loyihasini tayyorlash va tasdiqlash.
32.	Hududlar bilan ishlash bo'yicha ishchi guruhi a'zolaridan hududlarda amalga oshirilayotgan ishlar va yuzaga kelayotgan muammoli masalalar bo'yicha hisobotlarni qabul qilish.
33.	Ro'yxatga olish masalalari bo'yicha axborotlarni respublika shtabi rahbariga kiritish.

**Ro'yxatga olish tadbiri jarayonlarida hududlar bilan ishlash bo'yicha
ishchi guruhi
TARKIBI**

- | | |
|---------------|---|
| A. Ikramov | – Statistika ma'lumotlarini muvofiqlashtirish va tarqatish boshqarmasi boshlig'i, <i>ishchi guruhi rahbari</i> |
| F. To'rayev | – Ekologiya statistikasi bo'limi boshlig'i |
| X. Iskandarov | – Ochiq ma'lumotlar portali bo'limi boshlig'i, <i>Qoraqalpog'iston Respublikasiga mas'ul</i> |
| U. Noipov | – Xalqaro hamkorlik boshqarmasi boshlig'i, <i>Andijon viloyatiga mas'ul</i> |
| Z. Yuldoshev | – Demografiya, mehnat va gender statistikasi boshqarmasi boshlig'i, <i>Buxoro viloyatiga mas'ul</i> |
| M. Abdullayev | – Narxlar statistikasi boshqarmasi boshlig'i, <i>Jizzax viloyatiga mas'ul</i> |
| Sh. Daliyev | – Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit statistikasi boshqarmasi boshlig'i, <i>Qashqadaryo viloyatiga mas'ul</i> |
| J. Qambarov | – Ijtimoiy soha statistikasi boshqarmasi boshlig'i, <i>Navoiy viloyatiga mas'ul</i> |
| U. Obidov | – Makroiqtisodiy indikatorlar va milliy hisoblar boshqarmasi boshlig'i, <i>Namangan viloyatiga mas'ul</i> |
| J. Jamaldinov | – Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi boshqarmasi boshlig'i, <i>Samarqand viloyatiga mas'ul</i> |
| M. Satimov | – Tadbirkorlik subyektlarini kuzatuv boshqarmasi boshlig'i, <i>Surxondaryo viloyatiga mas'ul</i> |
| U. Madaminov | – Aholi turmush darajasi statistikasi va kambag'allikni baholash boshqarmasi boshlig'i, <i>Sirdaryo viloyatiga mas'ul</i> |
| M. Jamolov | – Investitsiyalar va qurilish statistikasi boshqarmasi boshlig'i, <i>Toshkent viloyatiga mas'ul</i> |
| X. Jurayev | – Sanoat va energetika statistikasi boshqarmasi boshlig'i, <i>Farg'ona viloyatiga mas'ul</i> |
| A. Mirzaxidov | – Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi boshlig'i, <i>Xorazm viloyatiga mas'ul</i> |
| M. Umarov | – Statistik registrlarni yuritish bo'limi boshlig'i, <i>Toshkent shahriga mas'ul</i> |
| O. Sidikov | – Mehnat muhofazasi va energetika bo'yicha muxandis – energiya menejeri |

**Ro'yxatga olish tadbiri jarayonlarida hududlar bilan ishlash bo'yicha
ishchi guruhi
VAZIFALARI**

T/r	Vazifalar
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi hududiy komissiyalarning tarkibini tasdiqlanishini ta'minlash.
2.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi hududiy komissiyalar uchun Farmonning mazmun mohiyati va yuklatilgan vazifalar bo'yicha seminar tashkil qilish.
3.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi hududiy komissiyalarining chora-tadbirlar rejasini tasdiqlanishini ta'minlash.
4.	Tumanlar va shaharlar hokimliklari huzuridagi tuman (shahar) komissiyalarining tarkibini tasdiqlanishini ta'minlash.
5.	Tumanlar va shaharlar hokimliklari huzuridagi tuman (shahar) komissiyalari Farmonning mazmun mohiyati va yuklatilgan vazifalar bo'yicha seminar tashkil qilish.
6.	Tumanlar va shaharlar hokimliklari huzuridagi tuman (shahar) komissiyalarining chora-tadbirlar rejasi tasdiqlanishini ta'minlash.
7.	Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar ro'yxatga olish shtablari faoliyatini tashkil etilishini ta'minlash.
8.	Tuman (shahar) ro'yxatga olish shtablari faoliyatini tashkil etilishini ta'minlash.
9.	Ro'yxatga olishni tashkil etish va nazorat qilib borish maqsadida hududiy statistika boshqarmalarida "Ro'yxatga olishni tashkil etish va amalga oshirilayotgan ishlarni monitoringi hamda ko'maklashish bo'yicha ishchi guruh" tarkibini tasdiqlash, vazifalarini belgilash faoliyatini nazorat qilish.
10.	Mahalliy hokimliklar tomonidan tuman (shahar) ro'yxatga olish shtablari va ro'yxatga olish uchastkalarini kanselyariya jihozlari hamda zarur hollarda transport vositalari bilan ta'minlanishini nazorat qilish.
11.	Tuman (shahar)larda ro'yxatga olishning tashkiliy rejasi (ro'yxatga olish va hisob uchastkalariga bo'lish) tuzilishi va tuman (shahar) komissiyalari bilan kelishilishini ta'minlash.
12.	Aholining ayrim toifalari mavjud muassasa va tashkilotlari bo'lgan mahallalar ro'yxatini shakllantirilishini ta'minlash.
13.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha yig'ma tashkiliy rejalarni hududiy komissiyalar bilan kelishilishini ta'minlash.
14.	Vaqtinchalik jalb qilinadigan xodimlar (zaxira xodimlarni ham hisobga olgan holda) ro'yxatini shakllantirilishini ta'minlash.
